4. Bobur Hindistonda qanday sulolaga asos slogan?

*What dynasty was the main slogan of Babur in India?*

### **52- mashq / an exercise 52**

Berilgan soʻz birikmalaridan foydalanib, gaplar tuzing. /

*Make sentences using the specified phrases.*

- 1) Bir kuni, biroy, bir yil, bir hafta
- 2) Ikki quloq, ikki koʻz, ikki doʻst
- 3) Uch bahodir, uch oʻgʻil, uchta shart
- 4) toʻrt tomon, toʻrt fasl
- 5) besh baho, besh doston
- 6) yetti moʻjiza, yetti kun, yetti nota
- 7) toʻqqiz oy, toʻqqiz kun

**53 - mashq / an exercise 53** Suhbatni rollarga boʻlib oʻqing. *toʻldi, kirdi, yoshda, tugʻilgan kun, oʻn sakkiz yosh soʻzlari va soʻz birikmalariga eʼtibor bering.*

- Bugun mening tugʻilgan kunim.
- Nechaga kirdingiz?
- Yigirma birga.
- Bugun uning tugʻilgan kuni.
- Nechaga kiribdi?
- Yigirma yoshga.

#### **54 - mashq / an exercise 54**

Nutqimizda faol qoʻllanadigan sonlarni soʻz bilan yozib chiqing./**Writi in words the most commoly used numbers.**

0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100, 1000, 10000.

#### **55 - mashq / an exercise 55**

**Matnni ingliz tiliga tarjima qiling./ Translate the text into English.**

Oʻzbekistonda quyidagi sanalar qonuniy bayram kunlari hisoblanadi: 1-yanvar Yangi yil, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navroʻz, 9-may– Xotira va qadrlash kuni,1-sentabr–Mustaqillik kuni,1-oktabr Oʻqituvchi va murabbiylar kuni, 8-dekabr – Konstitutsiya kuni, Ramazon va Qurbon hayitlari hijriy

hisobga koʻra har yili oʻn kun farq bilan nishonlanadi. Bulardan tashqari, 14-yanvar – respublika qurolli kuchlari kuni, 1-iyun – bolalarni himoya qilish kuni, 21-oktabr – oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilgan tarixiy sana sifatida nishonlanadi.

## **Doʻstingiz haqida soʻzlab bering / Tell about a friend**

### **Lugʻat/ Vocabulary**

<p>choyxona–café (oriental afé)</p> <p>oshxona–dining room,</p> <p>oʻrin –a place</p> <p>afzal– best</p> <p>mashhur –famous</p> <p>xalqaro–international</p> <p>chaqirmoq–call, invite</p> <p>faxrlanmoq–to be proud</p> <p>qoʻngʻiroq qilmoq– to call</p> <p>taklif qilmoq–invite</p> <p>Xursand boʻlmoq–rejoice</p>	<p>doʻstlik–friendship</p> <p>tashkilot– organization</p> <p>ilmiy– scientific</p> <p>muvaffaqiyatli–successful</p> <p>ogʻir–heavy</p> <p>etmoq–get there</p> <p>ishonmoq–believe</p> <p>qutlamoq–congratulate</p> <p>yordambermoq–to help</p> <p>tarqatmoq–distribute</p>
---	--

## **56 - mashq / an exercise 56**

Matni oʻqing va savollarga javob bering. (Sizning

do,,stingiz bormi? U nima bilan shug,,ullanadi? Sizlarning munosabatlaringiz qanday?) [Read the text and answer the questions: Do you have a friend? What does he do? What’s your relationship like?](#)

Mening do,,stim bor. Uning ismi Jahongir.U universitetda o,,qiydi. U judda aqlli yigit. Jahongir sport bilan shug,,ullanadi va badiiy adabiyotni ko,,p o,,qiydi. U yigirma birinchi martda tug,,ilgan.

### **57 - mashq / an exercise 57**

Do,,stingiz haqida o,,zbek tilida so,,zlab bering.56-mashqdan foydalaning. Tell us about your friend in Uzbek. Build on exercise 56

Mening ajoyib do,,stim bor. Do,,stim juda aqlli yigit.

Do,,stimning ismi Sherzod. Sherzod bilan birinchi bosqichda tanishganmiz. Biz o,,shanda do,,stlashganmiz. Men unga juda ishonaman. Biz birgalikda mashg,,ulotlarga qatnashamiz. Har doim bir-birimizga yordam beramiz. Sherzod mening eng ishonchli do,,stim. Men u bilan faxrlanaman.

## 10-dars / lesson-10

---

### **Mavzu: Yordamchi soʻzlar. / Auxiliary words**

Leksik maʼno ifodalamay, mustaqil soʻzlar oʻrtasidagi grammatik munosabatni ifodalaydigan, baʼzan soʻzga qoʻshimcha maʼno qoʻshadigan soʻzlar *yordamchi soʻzlar* deyiladi. Yordamchi soʻzlar mustaqil soʻzlar va gaplarni bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qiladi, soʻz va gaplarga qoʻshimcha maʼno yuklaydi. Hech qanday gap boʻlagi vazifasini bajarmaydi.

Yordamchi soʻzlar uch turga boʻlinadi:

1. Koʻmakchilar
2. Bogʻlovchilar
3. Yuklamalar

Auxiliary words are words that express the grammatical relationship between independent words without expressing lexical meaning, and sometimes add additional meaning to the word. Auxiliary words serve to connect independent words and phrases, adding additional meaning to words and phrases. It doesn't function as a part of sentence.

Auxiliary words are divided into three types:

1. Koʻmakchilar (auxiliaries)
2. Bogʻlovchilar (conjunctions)



### 3. Yuklama (suffixes)

*Ko,,makchilar* gapda ot yoki otlashgan so,,zdan keyin kelib, so,,zlar orasidagi birgalik, payt, sabab, maqsad kabi turli maʼno munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

*Ko,,makchilar* vazifasiga *ko,,ra* kelishik qo,,shimchalariga yaqin. Shuning uchun, ba,,zan *ko,,makchi* o,,rnida kelishik qo,,shimchasi ham ishlatilishi mumkin. Masalan, qalam bilan yozdim // qalamda yozdim, onam uchun oldim // onamga oldim kabi.

*Ko,,makchilar* maʼno va grammatik xususiyatiga *ko,,ra* uch turga bo,,linadi:

- a) asl *ko,,makchilar*
- b) ot *ko,,makchilar*
- c) feʼl *ko,,makchilar*

*Ko,,makchilar (auxiliaries)* come after a noun or a verbal noun in a sentence and serve to express different semantic relationships between words, such as connection, time, cause, purpose.

The function of *ko,,makchilar (auxiliaries)* is close to that of case suffixes. Therefore sometimes case suffixes can be used instead of *ko,,makchilar (auxiliaries)*. For example, qalam bilan yozdim // qalamda yozdim, onam uchun oldim // onamga oldim.

*Ko,,makchilar (auxiliaries)* are divided into three

types according to their meaning and grammatical features:

*a) original auxiliaries (asl ko,,makchilar)*

*b) noun auxiliaries (ot ko,,makchilar)*

*c) verb auxiliaries( fe"l ko,,makchilar)*

*Asl ko,,makchilar* o,,z leksik ma"nosini yo,,qotgan bo,,lib, boshqa so,,zlar bilan birikkanda turli munosabatni ifodalaydigan yordamchi so,,zlar: kabi, bilan, uchun, singari, sayin, xuddi, qadar va h. k.

*Ot ko,,makchilar* ot va ravishning ko,,makchi vaz,,ifasida kelgan shakli: tomon, yoqa, taraf, so,,ng, burun, tashqari, ichida va h. k. Ular gapda o,,z vazifasida ham, ko,,makchi vazifasida ham kela oladi.

*Fe"l ko,,makchilar* fe"lning ravishdosh, sifatdosh shakllaridan o ko,,makchilar o,,sib chiqqan ko,,makchilar : ko,,ra, yarasha, qaraganda, boshlab, tartib, bo,,ylab va h. k.

Ko,,makchilar asosan, bosh, jo,,nalish, chiqish, kelishigidagi ot yoki otlashgan so,,z bilan bog,,lanadi. Masalan, og,,ir ishdan keyin cho,,zilib uxlasang, dam olasan.

Bilan, uchun ko,,makchisi she"riyatda -la, -chun kabi qisqargan shaklda ishlatiladi. Masalan, mehr-la boqaman, ukam-chun oldim.

Gap bo,,laklarini va gaplarni bir-biriga bog,,laydigan yordamchi so,,zlar *bog,,lovchilar* deyiladi.

Bog,,lovchilar grammatik ma"no va vazifasiga ko,,ra ikki turga bo,,linadi.

1. Teng bog,,lovchilar
2. Ergashtiruvchi bog,,lovchilar

*Teng bog,,lovchilar* teng grammatik munosabatdagi gap bo,,laklari va gaplarni bir-biriga bog,,laydi. Teng bog,,lovchilar to,,rt turga bo,,linadi:

- 1) biriktiruv bog,,lovchilar: *va, ham, hamda*
- 2) zidlov bog,,lovchilar: *ammo, lekin, biroq, -u(-yu)*
- 3) ayiruv bog,,lovchilar: *yo, yoki, goh, dam, ba"zan,*
- 4) inkor bog,,lovchisi: *na.*

Ergashtiruvchi bog,,lovchilar qo,,shma gap tarkibidagi soda gaplarni grammatik jihatdan bir-biriga tobelash yo,,li

bilan bog,,laydi, shuning uchun ergashgan qo,,shma gaplarda ishlatiladi. Ergashtiruvchi bog,,lovchilarga -*ki(kim), chunki, negaki, toki, shuning uchun, agarda, go,,yoki, garchi, basharti* kabi bog,,lovchilar kiradi.

So,,z va gaplarga qo,,shimcha ma"no qo,,shadigan yordamchi so,,zlar *yuklamalar* deyiladi. Yuklamalar tuzilishiga ko,,ra ikki xil: affiks yuklamalar: *-mi, -chi, -a, -ya, -da, -u(-yu), -oq(-yoq), -gina, -ku* kabilar;

a) so,,z yuklamalar: *faqat, axir, xuddi, nahotki, hatto, hattoki* kabilar.

Yuklamalar ma"nolari jihatdan quyidagi turlarga

bo,,linadi:

1. So,,roq va taajjub yuklamalar: *-mi, -chi, -a(-ya)*.
2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalar: *-ku, -u(-yu), -da, -a, -oq(-yoq), -ki; axir, nahotki*.
3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: *-gina(-kina), faqat, faqatgina*.
4. Aniqlov yuklamasi: *xuddi*.
5. Gumon yuklamasi: *-dir*.

*-mi, -oq(-yoq), -gina(-qina, -kina)* kabi yuklamalar o,,zidan oldin kelgan so,,zga qo,,shib yoziladi. Masalan, o,,qidingmi?, bugunoq, oppoqqina, kechagina. Qolgan turlari o,,zidan oldin kelgan so,,zdan chizqcha bilan ajratib yoziladi: *sen-chi?, aytdim-ku, keladi-da, men-a!* kabi.

Auxiliary words that connect parts of speech and sentences are called *conjunctions (bog,,lovchilar)*. *Conjunctions (bog,,lovchilar)* are divided into two types according to their grammatical meaning and function.

1. *Peer conjunctions (Teng bog,,lovchilar)*
2. *Forwarding conjunctions (Ergashtiruvchi bog,,lovchilar)*

Peer conjunctions (Teng bog,,lovchilar) connect parts of speech and sentences in an equal grammatical relationship. There are four types of them:

- 1) connecting conjunctions (biriktiruv bog,,lovchilar):

*va, ham, hamda*

2) opposite conjunctions (zidlov bog,,lovchilar):

*ammo, lekin, biroq, -u(-yu)*

3) disjunctive conjunctions (ayiruv bog,,lovchilar): *yo,*

*yoki, goh, dam, ba''zan, bir.*

4) negative conjunctions (inkor bog,,lovchilar): *na.*

Connecting conjunctions connect simple sentences in a compound sentence by grammatically subordinating them, so they are used in compound sentences. Connecting conjunctions are: *-ki(kim), chunki, negaki, toki, shuning uchun, agarda, go,,yoki, garchi, basharti.*

Auxiliary words that add meaning to words and phrases are called “*yuklama*”. There are two types of “*yuklama*” according to the structure:

a) suffix-*yuklama*: *-mi, -chi, -a, -ya, -da, -u(-yu), -oq(-yoq), -gina, -ku;*

b) words-*yuklama*: *faqat, axir, xuddi, nahotki, hatto, hattoki.*

“*Yuklama*” is divided into the following types in terms of meaning:

1. “*yuklama*” of question and surprise: *-mi, -chi, -a(-ya).*

2. “*yuklama*” of emphasis: *-ku, -u(-yu), -da, -a, -oq(-yoq), -ki; axir, nahotki.*

3. “yuklama” of separation and limiting: *-gina(-kina), faqat, faqatgina*.

4. “yuklama” of identification: *xuddi*.

5. “yuklama” of suspicious: *-dir*.

“Yuklama” such as *-mi, -oq(-yoq), -gina(-qina, -kina)* added to the word that comes before it and written together. For example, *o,,qidingmi?, bugunoq, oppoqqina, kechagina*.

The rest of “yuklama” are separated by a hyphen from the word that comes before it: *sen-chi?, aytdim-ku, keladi-da, men-a!*

## **Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun mashqlar**

**58-mashq. an exercise 58** Gaplarni ko,,chiring. Ko,,makchilar ni topib, turlarini ayting. **Copy the sentences. Find helpers and name them.**

1. Xuddi bezgak tutganday titraydi. 2. Zal odamlar bilan to,,ldi. 3. Anvar yuzidagi kulguni yashirish uchun chetga qaradi. 4. Yig,,ilgan xaloyiq suron bilan yangi shahar tomon qo,,zg,,aldi. 5. Siddiqjon sukut qilganicha qimirlamay o,,tirar ekan, qizargan peshonasi bilan burnining uchi terdan yaltirardi. (A. Q.) 6. Siddiqjon bu chog,, qiz bolaning taqdiri to,,g,,risida o,,ylar edi. (A. Q.) Soqoli

oqargan, sochi oqargan, tirish bilan toʻlgan qari peshona. (U. Nosir) 7. Oʻktam uning orqasidan ancha tikilib, koʻngli qandaydir gʻash boʻldi. (O.) 8. Mustaqillikdan soʻng Toshkent shahri tanib boʻlmasdarajada oʻzgardi, sanoat va madaniy markazga aylandi.

**59 -mashq. an exercise 59.** Gaplarni oʻqing. Qaysi gaplarda koʻmakchi oʻrinda kelishik qoʻshimchasini qoʻllash mumkunligini ayting. **Read the sentences. Indicate which of the following statements can be used instead of the auxiliary.**

1. Institut kutbxonasi uchun yangi gazeta va jurnallar keltirildi. 2. U onasi bilan telefon orqali gaplashdi. 3. Biz tinchlik uchun kurashamiz. 4. Men yoz boʻyi dam oldim. 5. Yoshlar uchun ilm eshiklari har vaqt ochiq. 6. Daryoning u tarafiga koʻprik orqali oʻtdik. 7. Bahor kelib, qir-adirlar koʻm-koʻk maysalar bilan qoplandi. 8. Vatanimizning kuch-qudrati kun sayin ortib bormoqda. 9. Paxtakorlar dala tomon yoʻl oldilar. 10. Darsdan keyin kurs majlisi oʻtkazildi.

**60 -mashq. an exercise 60.** Gaplarni oʻqing. Bogʻlovchilarni topib, qaysi gaplarda uyushiq boʻlaklarni, qaysilarida sodda gaplarni bir-biriga bogʻlash uchun qoʻllanganligini ayting. **Read the sentences. Find the conjunctions and tell which sentences are used to connect**

cohesive parts and which are used to connect simple sentences.

1. Qo,,ng,,iroq chalindi va dars boshlandi. 2. Talabalar darsda o,,qiydilar, yozadilar va javob beradilar. 3. Bahor keldi va hamma yoq ko,,m-ko,,k tusga kirdi. 4. Oy yoritadi, biroq isitmaydi. 5. Goh yomg,,ir yog,,adi, goh quyosh chiqadi. 6. Shahar va qishloqlar obod bo,,ldi. 7. Shamol goh och bo,,riday uvillar, o,,lim changaliga tushgan mushukday pihillar, big,,illar, hech narsa ko,,rinmas edi. (A. Q.) 8. Bola juda sho,,x: dam yuguradi, dam sakraydi, tinim bilmaydi.

**61-mashq. an exercise 61.** Gapalarni ko,,chiring. Yuklamalarni topib, turini ayting. [Copy the sentences. Find the downloads and say the type.](#)

1. Siddiqjon etagini qoqib o,,rnidan turdi-yu, jadallaganicha ko,,cha eshigiga qarab ketdi. (A.Q.) 2. Yigit sevinib ketganidan hatto gapirolmay qoldi. (O.) 3. Darsga faqat Ilhom kechikib keldi. 4. Yomg,,ir-ku tindi, lekin havo biroz sovidi. 5. Men institutga boraman. Sen-chi? 6. Boshqa ishlarni keyinga qoldirib, bugun kela qolsa bo,,lmasmidi axir! 7. Papirosning zahari hatto filni ham o,,ldiradi. 8. – Nega bording? – O,,zim bordim-da.

**62 -mashq. an exercise 62.** –gina, -oq(-yoq), -ku, -



*a(-ya), -mi* yuklamalari ishtirokida beshta gap tuzing. – *gina, -oq(-yoq), -ku, -a(-ya), -mi make five sentences with prepositions.*

## **10-dars / lesson-10**

---

---

### **Mavzu: Modal soʻzlar. Undov va taqlid soʻzlar/ Modal words. Exclamatory and imitative words**

Gapda ifodalangan fikrning voqelikka munosabatini koʻrsatuvchi modallik kategoriyasi har bir gapning muhim konstruktiv belgilaridan biri hisoblanadi. Oʻzbek tilida modal maʼno bir qancha yoʻllar bilan – ot, feʼl va ravishlarning ayrim shakllari, shuningdek, yuklama va modal soʻzlar bilan ifodalanadi.

Oʻzbek tilida fikrning voqelikka munosabatini ifodalash uchun xizmat qiluvchi alohida soʻzlar *modal soʻzlar* deyiladi.

Modal (lotincha modus – “usul”, “oʻlchov”) soʻzlar soʻzlovchining gapda anglatilgan fikriga, voqea-hodisalarga munosabatini ifodalaydi. Modal soʻzlar umuman soʻzga tegishli boʻlib, gap boʻlaklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi, shuning uchun gap boʻlagi boʻlib kelmaydi. Modal soʻzlar bir butun leksik birlik boʻlib, tarkibi morfologik elementlarga ajratilmaydi.

Masalan, shubhasiz, soʻzsiz soʻzlari kelib chiqishiga koʻra sifat. Bu soʻzlar aniqlik, qatʼiylilik kabi maʼnolarni

anglatadi. Ammo, ular tarkibiy jihatdan qismlarga ajratilmaydi, yaʼni *-siz* affiksi ajratilmaydi.

Modal soʻzlar morfologik, sintaktik va semantik belgilarga ega:

1. Morfologik belgisi: modal soʻzlarning oʻzgarmasligi;

2. Sintaktik belgisi: butun gapga taalluqli boʻlib, kirish soʻz vazifasida kelishi;

3. Semantik belgisi: turli maʼno va munosabat ifodalashi.

Modal soʻzlar maʼno jihatdan quyidagi guruhlariga boʻlinadi:

1. Gapda ifodalangan fikrning aniqligini tasdiqlovchi modal soʻzlar: *albatta, shubhasiz, soʻzsiz, shaksiz, haqiqatdan, darhaqiqat.*

2. Gapda ifodalangan fikrning tahminiy, gumon, noaniqligini bildiruvchi modal soʻzlar: *ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan, haytovur, chogʻi.*

3. Biror voqea-hodisani afsuslanish, ajablanish kabi maʼnolarni bildiruvchi modal soʻzlar: *afsuski, ajabo, attang.*

4. Fikrning oʻzaro munosabatini va tartibini bildiruvchi modal soʻzlar: *demak, xususan, masalan, jumladan, chunonchi, binobarin, xullas, avvalo.*

Bundan tashqari *lozim, mumkin, shart, zarur, kerak* soʻzlari ham modallikni ifodalashga xizmat qiladi.

Modal soʻzlar quyidagi soʻz turkumlari bilan bogʻliq, shulardan oʻsib chiqqan:

- ot bilan: *afsus, aftidan, chamasi;*
- sifat bilan: *shubhasiz, soʻzsiz, shekilli;*
- feʼl bilan: *demak, demoqchi;*
- ravish bilan: *avvalo, albatta, ayniqsa;*
- yordamchi soʻzlar bilan: *balki, koshki, hatto,*

*haytovur;*

Modal soʻzlar gapda quyidagi sintaktik vazifalarda keladi:

1. Dialoglarda soʻz -gap vazifasida keladi: “Kinoga borasanmi?” – “Yoʻ, q”

2. Kirish soʻz vazifasida keladi. Bunday vazifada kelgan modal soʻzlar ohang yoki yozuvda ham alohida belgilar bilan ajratilmaydi: Darvoqe, Nigoraga nima boʻlibdi?

3. Kesim vazifasida keladi: Dugonalarim orasida yolgʻonchilar yoʻq, ishonchim komil.

The category of modality, which reflects the attitude of the idea expressed in the sentence to reality, is one of the important constructive features of each sentence. In

Uzbek, modal meaning is expressed in several ways - some forms of nouns, verbs and forms, as well as prepositions and modal words.

In Uzbek, modal words are words that serve to express the attitude of thought to reality.

Modal words (Latin *modus* - "method", "measure") express the attitude of the speaker to the idea expressed in his speech. Modal words are generally word-related and do not enter into grammatical connections with parts of speech, so they do not become part of sentence. Modal words are a single lexical unit the structure of which is not divided into morphological elements.

For example, *shubhasiz*, *so, zisiz* are originally adjectives. These words mean clarity, determination. However, they are not structurally subdivided, that is to say *-siz* affix is not subdivided.

Modal words have morphological, syntactic and semantic features:

1. Morphological feature: invariance of modal words;
2. Syntactic sign: applies to the whole sentence and comes as an introductory word;
3. Semantic sign: expression of different meanings and attitudes.

Modal words are semantically divided into the following

groups:

1. Modal words that confirm the accuracy of the idea expressed in the sentence, for ex: *albatta, shubhasiz, so,,zsiz, shaksiz, haqiqatan, darhaqiqat.*

2. Modal words denoting the conjecture, suspicion, uncertainty of an idea expressed in a sentence: *ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan, haytovur, chog‘i.*

3. Modal words denoting regret, surprise: *afsuski, ajabo, attang.*

4. Modal words that express the relationship and order of thought: that is, in particular, for example: *demak, xususlan, masalan, jumladan, chunonchi, binobarin, xullas, avvalo.*

Also the words *lozim, mumkin, shart, zarur, kerak* serve to express modality.

Modal words are related to the following parts of speech:

-nouns: *afsus, aftidan, chamasi;*

-adjectives: *shubhasiz, so,,zsiz, shekilli;*

-verbs: *demak, demoqchi;*

-adverbs: *avvalo, albatta, ayniqsa;*

-auxillary words: *balki, koshki, hatto, haytovur;*

Modal words perform the following syntactic functions in sentences:

1. In dialogues in the function of word-sentence:  
*“Kinoga borasanmi?” – “Yo,,q”*
2. In the function of introductory words: *Darvoqe,*  
*Nigoraga nima bo,,libdi?*
3. In the function of predicate: *Dugonalarim orasida*  
*yolg,,onchilar yo,,q, ishonchim komil.*

### **Undovlar.**

His-hayajon, haydash-chaqirish kabi maʼnolarni ifodalovchi soʻzlar *undov* deyiladi.

Undovlar leksik maʼnoga ega emas, gap boʻlagi vazifasida qoʻllanmaydi va gap boʻlamlari bilan grammatik jihatdan bogʻlanmaydi. Undovda ohang muhim ahamiyatga ega. Chunki undov maʼlum ohang bilan aytilmasa, u his-tuygʻuni ifodalay olmaydi.

Undovlar maʼno jihatdan ikki turga boʻlinadi:

1. His-hayajon bildiruvchi undovlar.
2. Buyruq-xitob undovlar.

His-hayajon bildiruvchi undovlar shodlik, sevinch, koʻtarinki ruhiy holat, kayfiyatni, xafalikni, ogʻir ruhiy holatni, taajjublanish, shubha, ikkilanish, eʼtiroz kabi maʼnolarni ifodalaydi. Bunday undovlarga *O, ah, oh, voy, voh, ob-bo, uh, eu, uf, hay, o,,ho,, ana, barakalla, ofarin, salom, dod, be, ha-* kabilar kiradi.

Buyruq-xitob undovlari chaqirish, haydash, buyruq kabi maʼnolarni bildiradi. Ularga *bah-bah, mah-mah, pish-pish, beh-beh, ey, hay, hey, tu-tu, qurey-qurey, kisht, chu, xo,,sh-xo,,sh, tak, ish, pisht, kisht, xayr, salom, ofarin, rahmat, hormang, balli* kabilar.

Undovlar fonetik shakllanishi, morfologik butunligi, ekspressivligi va maxsus ohangi bilan, kelishik, egalik, shaxs, zamon kabi grammatik maʼnolarni anglatmasligi bilan boshqa so,,z turkumlaridan farq qiladi

### **Exclamatory words.**

Words that express emotion, expelling or call are called exclamatory words.

Exclamatory words have no lexical meaning, are not used as part of sentence, and are not grammatically related to parts of sentence. The tone of the exclamatory word is important. Because when a call is not made in a certain tone, it cannot express emotion.

Exclamatory words are semantically divided into two types:

1. Emotional exclamations.
2. Command exclamations.

Emotional exclamations express joy, happiness, high spirits, mood swings, sadness, heavy moods, surprises, doubts, hesitations, and protests.

Examples: *O, ah, oh, voy, voh, ob-bo, uh, eu, uf, hay, o,ho,, ana, barakalla, ofarin, salom, dod, be, ha-*.

Command exclamations express expelling, call or command. Examples: *bah-bah, mah-mah, pish-pish, beh-beh, ey, hay, hey, tu-tu, qurey-qurey, kisht, chu, xo,,sh-xo,,sh, tak, ish, pisht, kisht, xayr, salom, ofarin, rahmat, hormang, balli.*

### **Taqlidiy so,,z lar.**

*Taqlidiy so,,zlar* shaxs, predmet va turli jonivorlar tovushiga, ularning harakat va holatiga taqlidini bildiruvchi so,,z lardir. Ular fikrni aniq va obrazli qilib ifodalashda muhim o,,rin tutadi. Taqlidiy so,,zlar ikki guruhga bo,,linadi:

1. Tovushga taqlidiy so,,z lar;
2. Harakat va holatga taqlidiy so,,z lar;

Tovushga taqlidiy so,,zlar odamlarning ixtiyorsiz chiqargan tovushlariga taqlid qilish, har xil jonsiz narsa va predmetlarning tovushiga taqlid qilish, turli parranda, hayvon va jonivorlarning tovushiga taqlidini bildiradi: *qiqir-qiqir, tars-turs, gumbur-gumbur, bitbildiq, miyov, vish-vish, chiy-chiy, taqur-tuqur, taq-tuq* kabi.

Harakat va holatga taqlid so,,zlar shaxs va narsaning harakat, holatini tasvirlash, ularga taqlid qilish orqali ifodalanadi: *yalt-yalt, yalt-yult, yarq, bilq, milt-milt, lip-lip,*



*lapang-lapang, dir-dir, g,,uj-g,,uj* kabi.

Taqlidiy so,,zlar tuzilishiga ko,,ra uch turga bo,,linadi:

a) yakka – *paq, g“iyt, taq, tars, chars;*

b) takror – *g,,ir-g,,ir, duv-duv, piqir-piqir, dukur-dukur;*

c) juft – *taqa-tuq-taq, tum-taka-tum;*

Taqlidiy so,,z lardan ot, fe“l va boshqa turkum so,,zlar yasaladi. Taqlidiy so,,zlar gapda ega, aniqlovchi, to,,ldiruvchi, hol vazifasida keladi.

**Tayanch so,,zlar:** voqelik, modallik, fikr, tasdiq, inkor, gumon, his-hayajon, undov, taqlid, holat, harakat, haydash-chaqirish.

### **Imitative words.**

Imitative words are words that mimic the sounds, movements, and states of a person, object, or animal. They play an important role in expressing ideas clearly and figuratively. They are divided into two groups:

1. Words that imitate sounds, examples: *qiqir-qiqir, tars-turs, gumbur-gumbur, bitbildiq, miyov, vish-vish, chiy-chiy, taqur-tuqur, taq-tuq.*

2. Words that imitate state or condition, examples: *yalt-yalt, yalt-yult, yarq, bilq, milt-milt, lip-lip, lapang-lapang, dir-dir, g,,uj-g,,uj.*

## Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun mashqlar.

**63 -mashq. an exercise 63.** Gaplarni o,,qing. Modal so,,z larni topib, 3 ma"nolarini tushuntiring. [Read the sentences.](#)  
[Find modal words and explain their meanings.](#)

1. Ha, shunday, ayb mendan o,,tgan edi. (A. Q.) 2. Rahimjonningni ko,,rsang menga uch taloqsan, dedi-da, axir! (A. Q.) 3. – Yo,,q, afandim! Ichki ko,,ylaklaringizni yuvdirib, dazmollatib qo,,yganman. (A. Q.) 4. – Hech shubhasiz, biz moxov emasmiz, - dedi Saidiy ko,,chaga chiqishganda. 5. Mayli, bir piyola sut bering, tuzalib ketar. 6. To,,g,,ri, Soraxon kishidan qochadi, basharti qochmaganda ham, Saidiy uni Ehsanning oldiga olib kirgani nomus qilar edi. 7. ... sizni bir ko,,rish orzusida edim, nasib bo,,ldi. Afsuski, ketaman deysiz. 8. Meningcha, klassiklar yashagan davrda turmushning o,,zi salbiy faktlarga to,,la bo,,lgan.

**64 -mashq. an exercise 64.** Quyidagi modal so,,zlar va undovlar ishtirokida gap tuzing. [Use the following modal words and phrases.](#)

Shekilli, shubhasiz, so,,z siz, attang, ehtimol. Ofarin, eh, ey, kisht, tu-tu, oh.

**65 -mashq. an exercise 65.** Gaplarni ko,,chiring.

Taqlid soʻzlarni ajratib, maʼnolarni ayting. **Copy the sentences. Separate the imitation words and say the types of meanings.**

1. Shu on arava birdan chayqalib, taraqa-turuq boʻlib ketdi. (M. Ism.) 2. Uning xotini ertadan kechgacha gʻuv-gʻuv charx yigirar edi. (A. Q.) 3. Ufqdagi togʻlarning ustiga, ira-shira oqargan, lekin osmonda, siyrak bulutlar orasida, hamon milt-milt yongan yulduzlar koʻrinardi. (O. Yo.) 4. U eshakdan agʻdarildi, ammo darrov turdi, boʻyniga musht tushdi – munkib ketdi. Churrr ... - Mirshab! 5. Atrofda piqir-piqir kulgi boshlandi. (A. Q.) 6. Suv shildir-shildir oqmoqda. 7. Sidiqjonning yuragi jiz etdi. (A. Q.) 8. Chaqaloqning inga-ingasi eshitildi. 9. Ha, ana! Oʻsha yoqda lip-lip etgan oʻt koʻrindi. (S. Ayn.) 10. Bir ikkitasi jiydani tepasiga chiqib, shoxlarini silkitmoqda, qolganlari, oyoqlarida botmon-botmon loy boʻlsa ham, xuddi yosh bolalarday bir-biri bilan quvlashib, talashib-tortishib, duv-duv toʻkilayotgan jiydalarni terishmoqda edi. (O. Yo.)

**66-mashq. an exercise 66.** Quyidagi soʻz birikmalari ishtirokida gaplar tuzing. **Make up sentences using the following phrases.**

lip-lip uchmoq, dagʻ-dagʻ, qaltiramoq, duk-duk urmoq, gʻir-gʻir esmoq, qars-qurs sinmoq.

*O‘zingizni sinab ko‘ring. Mustaqil holda jadvalni to‘ldiring.*

Jadvalni berilgan soʻzlarni olmoshlarga moslab, to‘ldiring – **Fill in the table by matching the given words to the rhymes: tinglamoq –listen, oʻynamoq – play, dam olmoq –relax, ishlamoq- work, yozmoq –write, bilmoq- know, qilmoq –be able to**

*namuna:*

Soʻzlarga savol bering, qaysi savolga javob berishiga qarab, jadvalga yozing.

Kunduzi, institutda, qarindosh, ertalab, kechqurun, dada, ot, tun, qishda, bobo, bahorgi, kuzgi, mushuk, yoz, dushanba, er, seshanbada, ona, yakshanba, inson, it, shanba kuni, kun, sayr qil, oq, koʻz, uy, bor, mehmon, bola, oʻqimoq, yozmoq, opa, dam olmoq, oldinda, yashamoq, dengiz, oʻng, nonushta qilmoq, momo, ism, suv, u yerda, oʻzgartirmoq.

**Namuna:**

Ot		Ravish		Fe‘l
Kim?	Nima?	Qachon?	Qayerda?	Nima qildi?

<b>Bobo</b>	<b>Suv</b>	<b>Ertalab</b>	<b>Institutda</b>	<b>Yozmoq</b>
-------------	------------	----------------	-------------------	---------------

Siz nimani bilasiz, nimani bilmaysiz; nima qilishni yoqtirasiz, nima qilishni yoqtirmaysiz , yozing - **Write what you know or don't know; what do you like or dislike to do:**

Men dorixona qayerdaligini bilaman- <b>I know where the</b>	Men gapirishni yoqtiraman – <b>I like to</b>
<b>pharmacy is</b>	<b>Talk</b>
Men muzey qayerdaligini bilmayman - <b>I don't know where the</b>	Men tinglashni yoqtirmayman – <b>I don't</b>
<b>museum is</b>	<b>like to listen</b>

Fe'llarni o,,tgan zamon shaklida yozing - **Write verbs in the past tense:**

Orzu qilmoq – **dream**, o,,ylamoq – **think**, o,,qimoq – **read**, kechqurun ovqatlanmoq – **dine**, yurmoq – **walk**

O,,tgan zamon fe''li /	
<b>Men nima qildim?</b>	
<b>Sen nima qilding?</b>	
<b>U nima qildi?</b>	

## TESTLAR/TESTS

1. Sening..... nima?

A) yoshing

B) sog,,lig,,ing

C) oilang

D) isming

2. Bolalar .....

A) yaxshimisizlar

B) sog,,misizlar

C) salomatmisiz

E) salom

3.ismingiz nima?

A) uning

B) bizning

C) mening

F) sizning

4. Men.....

A) o,,quvchimisiz

B) talabaman

C) talabasan

D) talabamiz

5. ko,,rding.

A) kimning

B) nimaga

C) kinga

D) kimni

6. Hozir.....yil fasli?

A) qish

B) nechta

C) nima

D) qanday

7. U .....o,,qiydi.

A) maktabni

B) universitetni

C) institutda

D) maktabga

7. Men Navoiy ..... yashayman.

A) teatrida

B) muzeyida

C) ko,,chasida

D) hovlisida

8. U juda yaxshi .....

A) yozamiz

B) o,,qiyamiz

C) o,,qiydi

D) yozmaysan

9. Ular..... go,,lib bo,,lishdi.

A)musobaqada

B)musobaqani

C)musobaqaga

D)musobaqadan

10. Osmonda ..... ko,,p.

A) yulduzlar

B) qor

C) yomg,,ir

D) odamlar

11.Bugun qor .....

A) keladi

B) quyadi

C) turadi

D) yog,,adi

12.Men bu yigitni.....

A) taniyman

B) taniymiz

C) taniysan

D) tanishdi



13.U men bilan .....

- A) o,,qiydi
- B) o,,qiydilar
- C) o,,qiyman
- D) o,,qiysan

14. Aqlli–.....

- A) dono
- B) bilimdon
- C) chiroyli
- D) aqlsiz

15. Yaxshi–.....

- A) bilimli
- B) go,,zal
- C) to,,g,,ri so,,z
- D) yomon

16.Baland – .....

- A)uzun
- B)qisqa
- C) yaxshi
- D) past

17.Chiroyli –.....

- A)go,,zal
- B)dono

C) yaxshi

D) xunuk

18. Katta– .....

A) baland

B) past

C) yaxshi

D) kichik

19. Yosh–.....

A) chiroyli

B) qari

C) kichik

D) katta

20. Chiroyli,.....

A) aqlli

B) dono

C) xunuk

D) go,,zal

21. Aqlli,.....

A) sog,,lom

B) katta

C) go,,zal

D) dono

22. Tirishqoq,.....

A) yaxshi

B) yomon

C) aqlli

D) harakatchan

23. So,,z lamoq,.....

A) o,,qimoq

B) yozmoq

C) gapirmoq

D) ko,,rmoq

24. O,,ylamoq,.....

A) bormoq

B) kelmoq

C) ketmoq

D) fikrlamoq

25. .... do,,stim!

A) omonmisizlar

B) salomatmisizlar

C) yaxshimisizlar

D) salomatmisan

26. Ob– havo ..... ?

A) nechta

B) qaysi

C) qancha

D) qanday

27. Saraton oyi .....keladi.

A) qishda

B) ahorda

C) kuzda

D) yozda

28. Navro,,z..... nishonlanadi.

A) yozda

B) kuzda

C) Qishda

D) bahorda

29. Yanvarda ..... chiqamiz.

A) yozgi ta`tilga

B) kuzgi ta`tilga

C) qishki ta`tilga

D) bahorgi ta`tilga

30. Men o,,zbekcha so,,zlashni.....

A) ozayapman

B) o,,ryapman

C) boryapman

D) o,,rganyapman

31. Siz kelajakda kim bo„lishni ..... ?

- A) o„qiysiz
- B) yozasiz
- C) istaymiz
- D) istaysiz

### **Matni davom ettiring**

32. Men bugun juda xursandman. chunki, .....

- E) darsga bormayman.
- F) uyga vazifani bajarmadim.
- G) bugun tug„ilgan kunim.
- H) stipendiy aoldim.

34. Men juda xushchaqchaqman. Bolalarni juda yaxshi ko„raman,.....

- I) ularga doim yordam beraman.
- J) ularga ertak aytib beraman.
- K) ularga qo„shi qaytib beraman.
- L) ularga konfet beraman.

35. U juda quvnoq yigit. Doim jilmayib turadi. Uni ko„rsam,.....

- M) kayfiyatim ko„tariladi.
- N) qo„shiq aytgim keladi.
- O) kulib turaman.
- P) o„ylab qolaman.

## Nuqtalar o,,rniga mos so,,zni qo,,ying

36. Kitobim.

- A) sening
- B) mening
- C) uning
- D) bizning

37. Mening .....qayerda?

- A) kitobim
- B) hovlimiz
- C) uyimiz
- D) daftar

38. .... Siz tug,,ilgansiz?

- a. qaysi
- b. qayer
- c. nechanchi
- d. qayerda

39. Siz ..... borasizmi?

- e. biznikiga
- f. qachon
- g. siznikiga
- h. qayerga

40. .... Toshkentga.....

- A) ko,,rdingizmi?
- B) borasizmi?

- C) yashaysizmi?
- D) so,,zlashdingizmi?

41.Men o,,qishga.....

- A) o,,qidim
- B) borasiz
- C) keldi
- D) boraman

42.Biz Moskvada.....

- A) kelganmiz
- B) yashaymiz
- C) o,,qiyman
- D) yashayman

43.Biz “Yangiliklar” ni.....

- A) o,,qiyapman
- B) ko'ryapman
- C) ko,,ramiz
- D) ko,,rasiz

44.Men “Yoshlar” kanalini.....

- A) yaxshi ko,,raman
- B) bilmayman
- C) yaxshi bilamiz
- D) o,,qiyman

45 .....juda issiq bo,,ladi.

- A) Qishda

- B) Bahorda
- C) Yozda
- D) Kuzda
- E)

46. Bu nima?      A) piyoz; B) kartoshka; C) karam; D) sabzi



47. Sabzi qanday rangda?

- a) Qizil;
- b) Jigarrang;
- c) Yashil;
- d) Sariq.

48. Sabzi qaysi ovqatlarda ishlatiladi?

- a) Salat tayyorlashda ishlatiladi;
- b) Asosan oʻzbeklarda osh (palov) tayyorlashda ishlatiladi;
- c) Somsa tayyorlashda ishlatiladi;
- d) A va B

49. Oʻzbekistonda qanday sabzavotlar yetishtiriladi?

- a) Olma, piyoz, oshqovoq;
- b) Kartoshka, sabzi, piyoz;



- c) Karam, kartoshka, uzum;
- d) Sabzi,piyoz,uzum.

50. Home so,,zi o,,zbek tiliga qanday tarjima qilinadi?

- a) Hovli;
- b) Uy;
- c) Dala hovli;
- d) Oromgoh/

51. Unli-Vowel tovushlar to,,g,,ri berilgan qatorni toping.

- a) A,u,r,d,i,o;
- b) O,i,y,s,a,e;
- c) A,o,i,e,o`u;
- d) A,o,n,c,l,e.

52. Berilgan gap qaysi qatorda o,,zbek tiliga to,,g,,ri tarjima qilingan? “I live in Andijan”

- a) Men andijonlikman.
- b) Men Andijonda yashayman.
- c) Men Andijonda tug,,ilganman.
- d) Men Andijonda yashamayman.

53. to live, to come, to talk, to play to,,g,,ri tarjima qilingan qatorni toping.

- a) Yashamoq, kelmoq, gaplashmoq, o,,ynamoq;
- b) Yashamoq,kulmoq,o,,ynamoq, bormoq;
- c) Yashamoq, gapirmoq, aytmoq, uxlamoq;

d) Yashamoq, bormoq, gapirmoq, tezlamoq.

54.



Bu nima?

- a) Pomidor;
- b) Achchiq qalampir;
- c) Bulg,,or qalampiri;
- d) Gul karam.

55. O,,zbekistonda qanday mevalar yetishtiriladi?

- a) Olma , anor, uzum, nok,behi,o,,rik;
- b) Olma, sabzi, karam, uzum,gilos,shaftoli;
- c) Olma, uzum,piyoz,nok,gilos,kartoshka;
- d) Olma, anor, uzum,nok,qovun.

56. “Bog”da oq va qizil .....pishdi.”Nuqtalar o`niga tushirib qoldirilgan meva nomini qo,,ying.

- a) Olma;
- b) Nok;
- c) Uzum;
- d) Anor.

57. Gapni toʻldiring. “Bu pishmagan, nordon .....”



- a) Sabzi;
- b) Anjir;
- c) Qulupnoy;
- d) Gilos.

58. O`rik qanday?



- a) Shirin;
- b) Pishgan;
- c) Sariq;
- d) Barcha javoblar toʻgʻr.

59. Bu qanaqa tarvuz?



- a) Pishgan;
- b) Pishmagan;
- c) Qizil va dumaloq;

d) A va C

60. Poliz ekinlarini sanab bering.

a) Olma, uzum, oshqovoq, tarvuz;

b) Oshqovoq, tarvuz, qovun, handalak;

c) Pomidor, bodring, qovun, tarvuz;

d) Oshqovoq, tarvuz, qovun, o,,rik;

61. Kartoshkada qanday vitaminlar bor?

a) C, B, Pp, K;

b) A, B, D, E;

c) C, E, A, D;

d) B, A, Pp, K;

62. Inson yuz qismida qanday a"zolar bor?

a) Qosh-ko,,z, burun, og,,iz, jag,,;

b) Quloq, soch, og,,iz, bo,,yin;

c) Peshona, og,,iz, bo,,yin, yelka;

d) Qosh-ko,,z, burun, bo,,yin, barmoq;

63. Sochlar qanday rangda?



a) Sariq , qora, qo,,ng,,ir,jigarrang;

b) Sariq,uzun, kalta,chiroyli;

c) A va D

d) Uzun,tekis, jingalak,taralgan;



64. Bu nima?

a) Kiprik;

b) Ko,,z;

c) Qosh;

d) Qovoq.

65. Qizning qoshi qanday?



a) Qora; b) Uzun;c) Qalin;d) Kalta.

66. “My eyebrow is black” gapi o,,zbek tiliga to,,g,,-ri tarjima qilingan qatorni toping.

a) Mining ko,,zim qora.

b) Mening qoshim qora.

c) Mening kiprigim qora.

d) Mining qoshim uzun.

67. “Her eyelashes are long and black” gapi o,,zbek tiliga to`g,,ri tarjima qilingan qatorni toping.

a) Uning kipriklari uzun va qora.

b) Uning qoshi qalin va uzun.

c) Uning ko,,zi qora va chiroyli.

d) Uning kipriklari uzun va jigarrang.

68. Bu kishining qoshi qanday?



- a) Bu kishining qoshi yo,,q;
- b) Bu kishining qoshi kalta;
- c) Bu kishining qoshi uzun;
- d) Bu kishining qoshi qora emas.

69. Bu kishining kiprigi qanday?



- a) Uzun;
- b) Qora;
- c) To,,mtoq;
- d) Uzun va qora.

70. “My daughter“s hair is much and thick” gapi o,,zbek tiliga to,,g,,ri tarjima qilingan qatorni toping.

- a) Qizimning sochi qora va kalta.
- b) Qizimning sochi sariq va kalta.
- c) Qizimning sochi qora va uzun.
- d) Qizimning sochi sariq va uzun.

71. “My son“s eyes are tight” gapi o,,zbek tiliga to,,g,,ri tarjima qilingan qatorni toping.

- a) O,,g,,limning ko,,zlari katta.
- b) O,,g,,limning ko,,zlari chiroyli.
- c) O,,g,,limning ko,,zlari qisiq.
- d) O,,g,,limning ko,,zlari qora.

72. “My hair is long and brouwn” gapi o,,zbek tiliga to,,g,,ri tarjima qilingan qatorni toping.

- a) Mening sochim kalta va qora.
- b) Mening sochim uzun va qora.
- c) Mening sochim kalta va jigarrang.
- d) Mening sochim uzun va jigarrang.

Qizning ko,,zi qanday?



- a) Moviy ko,,z;
- b) Qora ko,,z;
- c) Jigarrang ko,,z;
- d) Dumaloq ko,,z;



73. Uning sochi qanday?

- a) Sochi yo,,q kal;

- b) Mallarang;
- c) Qora soch;
- d) Kalta soch.

74. Qizning sochi qanday?



- a) Uzun va qora;
- b) Kalta va qora;
- c) Kalta va jigarrang;
- d) Uzun va sariq.

## Adabiyotlar / Literature

### Lugʻatlar -dictionaries

1. Ruscha-oʻzbekcha lugʻat / M.K.Kochanova tahririyati ostida. Toshkent, 1984.T. 1–2.
2. Ruscha-oʻzbekcha lugʻat.A.Azizov.Toshkent ,1989.
3. Rahmatullayev Sh.,HojiyevA.Oʻzbek tilining yangi imlo lugʻati.Tosh-kent, 1995.
4. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. Toshkent, 1995.

### Darsliklar / Textbooks

Umumiy oʻrta taʼlim davlat taʼlim standartlari //

Oʻqituvchi. Oʻzbekiston. 1999 yil.

*KamalovaM.N. Akademik litseylarning turkiyzabon oʻquvchilari uchun nutq odobi . Toshkent 2016.*

*AhmedovaG.T.,KarimjonovaB.A.Oʻzbek tili*

(Oliy oʻquv yurtlari, kollej va litseylarning rus



guruhlari uchun). Toshkent, Ijod dunyosi, 2011.

1. K. Turdiyeva O., zbek tili nopedagogik oliy o., quv

2. yurti talabalari uchun. Toshkent 2016 y

3. *Mo., minova A.* Yangi o., zbek alifbosini o., rganamiz. Toshkent, 2015.

4. *Muhammedjonova G.Z.* Darsdan tashqari mashg., ulotlarda rusiy zaban o., quvchilarning o., zbekcha nutqini o., stirish metodikasi. Toshkent, 2013.

5. *Qahhorova H., Muhammedova S.* O., zbek tili. Oliy o., quv yurtlari rusiy zaban guruhlari uchun darslik. Toshkent, 2003.

6. *Rafiyev A.* O., zbek tili (Ta"lim rus va qardosh tillarda olib borilayotgan maktablarning 9-sinfi uchun darslik). Toshkent, 2006.

*Rasulov R., Usmonova M., Mirazizov A.* O., zbek tili. Oliy o., quv yurti rus guruhi talabalari uchun darslik. Toshkent, 2003.

7. *R. Ishmuhamedov va M. Yuldashev*

*Ta"lim va tarbiyada innovatsion texnologilar.* Toshkent. 2013 y.

8. *Uzoqov X., Mirzakarimov O"., Saidova R.* O., zbek tili amaliyoti. (Практика узбекского языка) Nofilologik oliy o., quv yurtlari rus guruhlari uchun darslik. Toshkent, 2007 qayta ishlangan.

9. *Xudoyberganova D.* Lotin yozuviga asoslangan o., zbek alifbosi. Tosh-kent, 2013.

ZULXUMOR MAMITXONOVNARAHMATOVA

# O‘ZBEK TILI (ingliz tilida)

O„QUV QO„LLANMA

ADTI KITOB DO‘KONI  
Telegram: @kitoblarkerakmi  
Tel: +99890 060 10 58

ANDIJON -2022